

O'ZBEK TILINI O'RGANISHDA INTERNETNING TA'SIRI

Komilova Z.X

Farg'ona Davlat Universiteti

Xumor851@mail.ru

Sobirova Dildora Davlatjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti 25.104-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada internet tarmog'ining o'zbek tiliga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Internet orqali kirib kelayotgan yangi so'zlar, ularning til boyligiga qo'shgan hissasi, til aralashuvi, yoshlar nutqiga ta'siri va til ma'daniyati masalalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: internet, o'zbek tili, yangi so'zlar, til aralashuvi, yozma nutq, til ma'daniyati, raqamli kommunikatsiya

Kirish. Shamol tezligida taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda raqamli texnologiyalar, xususan, internetning hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelishi insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib bormoqda. Ayniqsa, internetning til tizimiga kirib kelishi natijasida yangi ifoda vositalari, qisqartmalar, inglizcha o'zlashmalar va yangi kommunikativ shakllar paydo bo'ldi. Bunga misol qilib, Naomi S. Baron – "Always On: Language in an Online and Mobile World" {2008} nomli kitobini olishimiz mumkin. Ushbu kitobda internetning tilga bo'lgan ta'siri va buning natijasida tilda bo'layotgan o'zgarishlar haqida so'z boradi. Internet orqali yuzaga kelayotgan yangi so'zlar, qisqartmalar va xorijiy atamalar o'zbek tilining zamonaviy lug'at boyligiga singib bormoqda. Shu bilan birga, bu jarayon milliy tilning me'yoriy tuzilishiga ma'lum bir darajada tahdid ham soladi. Demak, internetning o'zbek tiliga ta'siri ikki yo'nalishda kechmoqda: tilni boyitish va til me'yorlarining buzilishi.

Internetning ijobiy lingvistik ta'siri

Tan olib ayitishimiz kerakki, Internet tili o'zbek tilining rivojiga ham katta hissa qo'shmoqda, negaki u yangi so'z yasash jarayonlarini tezlashtiradi, xalqaro terminlarni joriy etadi, so'z boyligini kengaytiradi

O. Yusufjonovanning "O'zbek tilini o'qitishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni" mavzusida yozgan maqolasida 2020-yilda pandemiya sababli barcha fanlar qatori o'zbek tili ham masofaviy o'qitildi. Pandemiya davrigacha o'zbek tilini o'rgatuvchi ijtimoiy tarmoqlardagi kanal va guruhlar soni 20 ga yaqin bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib ularning soni 100 ga yaqin. Jumladan, "ONA TILI VA ADABIYOTI", "O'ZBEK TILINI

O'RGANAMIZ", "DAVLAT TILI" kabi Telegram kanal va guruhlarini misol keltirgan edi. Demak, internet orqali o'zbek tilini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bugungi kunda o'zbek tilida faoliyat yurituvchi bloggerlar, onlayn gazeta va jurnallar, elektron kutubxonalar mavjud. Ular o'zbek tilining raqamli muhitda faol ishlashiga, milliy ma'daniyatni targ'ib etishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, "O'zbek tili milliy korpusi", "O'zbek tilining elektron lug'ati" kabi loyihalar internet asosida yaratilgan bo'lib, o'zbek tilining global axborot makonida o'z o'rnini topishiga katta yordam bermoqda.

Internet nutqining yozma va og'zaki tildagi o'zgarishlarga ta'siri

Internet muhitidagi yozishmalar ko'p hollarda grammatik me'yorlardan chekinish, so'zlarni qisqartirish va talaffuz asosida yozish bilan xarakterlanadi. Foydalanuvchi tez va qisqa yozishga intiladi: "bo'ldi" o'rniga "bldi", "nima qilyapsan" o'rniga "nma qivossan", "ha" o'rniga "xa" kabi qisqartmalar keng tarqalgan. Bunday qisqartirishlar vaqt tejallishiga xizmat qilsa-da, yozma nutqning me'yoriy holatini buzadi.

O'g'zaki nutqqa ta'siri nuqtai nazaridan esa, internetdagi yozma muloqot natijasida yoshlar og'zaki nutqda ham qisqartmalarni, inglizcha so'zlarni ishlatishga odatlanmoqda. Masalan, "ok", "like bosdim", "onlaynda edim", "story ko'rdim" singari iboralar tabiiy muloqotning bir qismiga aylangan. Bu esa og'zaki nutqning milliy, xalqona ifodalaridan uzoqlashuv xavfini yuzaga keltiradi.

Internetning o'zbek tiliga ta'siri murakkab, ko'p qirrali va o'zgaruvchan jarayon hisoblanadi. U til tizimining grammatik, lug'aviy, uslubiy va yozma nutqda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Demak, internet bir tomondan tildagi yangilanish hamda rivojlanish bo'lsa, boshqa tomondan me'yorilikni zaiflashtiruvchi omil sifatida baholashimiz mumkin. Eng muhim vazifamiz-internet tili va adabiy til o'rtasida muvozanatni saqlash, yoshlarning yozma nutq ma'daniyatini oshirishdir.

Bugungi raqamli asrda o'zbek tilining nufuzi va mavqeini saqlab qolish — barchamizning muhim vazifamizdir. Zero, til – millatning ruhi, tafakkuri va ma'naviyatining asosi hisoblanadi. Shu boisdan davlat siyosati, ta'lim tizimi, ilm-fan sohasi hamda lingvistik tadqiqotlar o'zaro uyg'unlikda olib borilishi zarur. Faqat shundagina o'zbek tili raqamli texnologiyalar va global axborot makonida o'z o'rnini yo'qotmay, aksincha, milliy g'urur va taraqqiyot timsoliga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli asr sharoitida o'zbek tilining mavqeini mustahkamlash va uni zamonaviy axborot muhitiga moslashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda davlat siyosati, ta'lim tizimi, ilm-fan sohasi va lingvistik tadqiqotlar o'zaro uzviy aloqada faoliyat yuritishi zarur. Ularning uyg'un hamkorligi o'zbek tilining raqamli makonda barqaror rivojlanishiga, xalqaro miqyosda nufuzining oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baron, N.S. (2008). Always on: Language in an online and mobile world. Oxford University PrPress
2. Jo'rayev, M. (2019). Til va jamiyat.
3. Mengaliyeva, M. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tilning o'zgarishi.
4. O. Yusufjonova. O'zbek tilini o'qitishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rni. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

